Fikrimizcha, ishlab chiqarishni tubdan modernizatsiya qilish, korporativ madaniyatni rivojlantirish orqali erishilgan samaradorlikni to'g'ri baholash uchun kompaniyadagi mavjud sharoitlarni hisobga olgan holda uning mezonlarini aniqlash muhimdir.

Va undan kelib chiqib, aksiyadorlik jamiyati korxonalarini samaradorligini baholashning uslubiy masalalari borasida tarmoq korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari va bozor munosabatlari sharoitida yuzaga kelgan omillarni hisobga olish lozim.

Tadqiqot obyekti qilib qabul qilingan "Uzsalaman"AJ va "Maxam Chirchiq"AJ korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini baholashda tarmoqning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- "Uzsalaman"AJ va "Maxam Chirchiq"AJ korxonalarining yengil sanoat, kimyo sanoati, neft-gaz tarmoqlari, chorvachilik kabi korxonalariga xom ashyo miqdori, butlovchi materiallar va ularning sifati nuqtai-nazaridan bog'liqligi;

- "Uzsalaman"AJ va "Maxam Chirchiq"AJ ko'p material talab qiladigan korxonalar hisoblanib, uning mahsulot ishlab chiqarish tannarhida moddiy harajatlarning ulushining yuqoriligi;

- "Uzsalaman"AJ va "Maxam Chirchiq"AJ korxonalarining ishlab chiqarishi oqim xususiyatiga ega bo'lib, bir korxonaning tayyor mahsuloti boshqa korxonalar uchun xom ashyo hisoblanishi;



- korxonalarda ixtisoslashtirish darajasining yuqoriligi;
- korxonalarining texnologik jihatdan qurollanganlik darajasining nisbatan pastligi;

Aksiyadorlik jamiyati korxonalarining foyda olish maqsadida faoliyat yuritishlari mahsulotlar bahosining bozor kon'yunkturasiga muvofiq holda shakllanishi, taklif etilayotgan tovarlar hajmi, unga bo'lgan talab ko'p miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni emas, balki imkoniyat darajasida kam harajat talab qilib, yaxshi mahsulotlar ishlab chiqarish va bu orqali yuqori darajada foyda olishning muhim qaror qilinishi lozim.

Foyda korxonalar uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyati uchun muhim bo'lsa, ishlab chiqarish xarajatlari foydalanuvchi uchun asosiy chegaralovchi faktor hisoblanadi, ya'ni ishlab chiqarish xarajatlarning miqdori foyda miqdoriga teskari proporsionaldir. Bu esa uning taklif etilayotgan mahsulotlar hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omil ekanligini ko'rsatadi. O'z navbatida korxonaning ishlab chiqarish harajatlari hajmi ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan resurslarga bog'liq. Ya'ni ayrim hollarda resurslar miqdorini tez o'zgartirish mumkin bo'lsa, boshqa xollarda bu jarayon uzoq muddat talab etadi.

Bu tushunchalar asosida, ishlab chiqarish quvvatlarini o'zgartirish, ya'ni ulardan qisqa muddatli foydalanish darajasini oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatish orqali, korporativ madaniyatni rivojlantirishga yordam berish hamda ichki imkoniyatlarini rivojlantirish orqali foyda ko'rsatishning yuqori potentsiali mavjud. Erkin raqobatchilik muhiti ta'minlangan iqtisodiyotda bu davrlarning har biri o'z o'rnida muhim bo'lib, ishlab chiqarish sub'ektlari bozor konyunkturasiga tez moslashish harakatida bo'ladilar. Charmpoyabzal sanoati mahsulotlarining mavsumiy xarakterdaligi va moda yo'nalishlarining nisbatan tez o'zgarib turishi munosabati bilan ularga bo'lgan talab ham tez oshishi mumkin. Bunday holatda ishlab chiqarishga investitsiyalar kiritish orqali yangi, zamonaviy uskunalarni o'rnatish va ulardan foydalanish darajasini oshirish, mavjud ish kuchi resurslaridan oqilona, samarali foydalanish hisobiga ishlab chiqarish hajmini oshirish ko'proq samara beradi.

Tarmoq mahsulotlari tannaxini pasaytirishga oid tadbirlarni joriy etish davrida ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirishning asosiy imkoniyatlarini aniqlab topish lozim. Ko'n-charm xom ashyosini samarali qayta ishlash, tarmoq korxonalarida zamonaviy texnologiya asbob - uskunalarini joriy etish va shu asosda raqobatga bardoshli tayyor charm mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xaridorlarga yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga keng joriy etish, ishlab chiqarish va mehnatni yo'lga qo'yish va boshqarishni takomillashtirib borish va boshqalar ana shunday imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, mahsulot tannaxini kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida o'tgan davrdagi xarajatlar har tomonlama taqqoslab chiqiladi. Taqqoslash vaqtida faqatgina shu korxonaning ko'rsatkichlari bilan kifoyalanmasdan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari o'xshash bo'lgan korxonalarining xarajat va daromad ko'rsatkichlari bilan ham taqqoslanishi maqsadga muvofiqdir.


Demak, ishlab chiqarish samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va mahsulot miqdoriga bog'liqdir. O'z navbatida ko'rsatkichlar o'zaro aloqadordir.

"Uzsalaman"AJ va "Maxam Chirchiq"AJ korxonalarini faoliyatining barcha jihatlari va ular samaradorligiga xolis baho berishda ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari tizimining qanday talablarga javob berishi zarurligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, mazkur tizim samaradorlikni aniqlashga iloji boricha aniq yondashishni ta'minlashi, mavjud xo'jalik yuritish tizimiga muvofiq kelishi va barcha ishlab chiqarish zahiralardan foydalanish darajasini to'g'ri va aniq aks ettirishi lozimdir.

Bizning fikrimizcha "Uzsalaman"AJ va "Maxam Chirchiq"AJ korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligini baholash uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, samaradorlikni baholash uchun yaxlit umumlashgan ko'rsatkichni yaratish o'zaro mos kelmaydigan ko'rsatkichlarni tenglashtirish va birlashtirishni taqozo etadi. Vaholanki, bu ko'rsatkichlar turlicha o'lchov birliklarida aks ettiriladi va ular ishlab chiqarish faoliyatining turli tomonlarini yoritishga asoslanganligi bois ularni bir o'lchamga keltirish, taqqoslash, yoki ular asosida aniq xisob-kitob yuritish amaliyotda katta qiyinchilik tug'diradi, hamda qilingan taxlillarning ishonchliligi ta'minlanmaydi. Shuning uchun korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarini to'liq tavsiflay oladigan turli ko'rsatkichlardan yoki ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish korxonaning samaradorlik darajasini aniq xisoblash imkoniyatini yaratadi.


Turli tarmoq korxonalarining mustaqil harakat qilishi ularning ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlarini mustaqil tanlash imkoniyatini yaratadi. Shunday ekan, bu ko'rsatkichlarni ixchamlashtirish orqali samaradorlik darajasini imkon qadar to'laroq ifoda eta oladigan xalqaro stantartlarga mos tizim ishlab chiqish talab etiladi.

Aksiyadorlik jamiyati korxonalarini samaradorligini baholashning uslubiy masalalari borasida tarmoq korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari va bozor munosabatlari sharoitida yuzaga kelgan omillarni xisobga olish lozim. Korporativ madaniyatning samaradorligini oshiruvchi ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy va bozor muhiti o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Korporativ boshqaruvning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar.

Fikrimizcha, samarali korporativ madaniyat aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati va uzoq muddatli istiqbollariga bevosita ta'sir qiladi. Bu turdagi korporativ madaniyat aksiyadorlik jamiyatlari uchun muvaffaqiyatni ta'minlashdagi eng muhim faktorlardan biri hisoblanadi. U korporatsiya ichidagi boshqaruv va faoliyatni muvaffaqiyatli yuritishda raqobatdoshlikni saqlab qolishga yordam beradi. Bu o'n ichida, korporatsiya a'zolari o'rtasidagi insonlarning ahlaki fazilatlari, ishonchli va oddiyliklar, mehnat unumdorligi, jismoniy sog'lig'i va jamoatning umumiy xususiyatlari bilan bog'liqdir. Samarali korporativ madaniyat aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv elementlari rivojlanishini ta'minlaydi, ishni zavqqa aylantiradi va jamoani birlashtiradi. Bu aksiyadorlik jamiyatlarini boshqaruv tizimining rivojlanishiga va uning obro'sining oshishiga zamin yaratadi. Shuningdek, ishlab chiqarishni tubdan modernizatsiya qilish, korporativ madaniyatni rivojlantirish orqali erishilgan samaradorlikni to'g'ri baholash uchun kompaniyadagi mavjud sharoitlarni hisobga olgan holda uning mezonlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi (2-rasm).



2-rasm. Korporativ boshqaruvning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar<sup>1</sup>

“Uzsalaman”AJ va “Maxam Chirchiq”AJ korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligini baholash uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, samaradorlikni baholash uchun yaxlit umumlashgan ko'rsatkichni yaratish o'zaro mos kelmaydigan ko'rsatkichlarni tenglashtirish va birlashtirishni taqozo etadi. Vaholanki, bu ko'rsatkichlar turlicha o'lchov birliklarida aks ettiriladi va ular ishlab chiqarish faoliyatining turli tomonlarini yoritishga asoslanganligi bois ularni bir o'lchamga keltirish, taqqoslash, yoki ular asosida aniq xisob-kitob yuritish amaliyotda katta qiyinchilik tug'diradi, hamda qilingan taxlillarning ishonchilligi ta'minlanmaydi. Shuning uchun korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarini to'liq tavsiflay oladigan turli ko'rsatkichlardan yoki ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish korxonaning samaradorlik darajasini aniq xisoblash imkoniyatini yaratadi.

1 Muallif ishlanmasi



Tadqiqot ishimizda aksiyadorlik jamiyatlarida manfaatdor sub'ektlar o'rtasidagi korporativ munosabatlarni o'rganish hamda korporativ madaniyatni rivojlantirish orqali samadorlikni oshirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lgani bois, biz korporativ munosabatlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini baholash joiz, deb bildik.

"Uzsalaman" AJ va "Maxam Chirchiq" AJ korxonalarini faoliyatini diagnostik tadqiq etishda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasiga baho berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarning raqobatbardoshligi uning boshqa turdosh tovarlardan afzallik jihatlarning mavjudligi, umume'tirof etgan talablarga javob berishi, tovar ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar miqdori bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Uzsalaman" AJda 2018–2022-yillarda ishlab chiqarish samaradorligi korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va mahsulot miqdoriga bog'liq holda o'zgargan.

Quyidagi jadvalda tadqiqot ob'ekti qilib qabul qilingan "Uzsalaman" AJ da 2018–2022-yillarda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishlarining korxonada foydasiga ta'siri dinamikasini keltirganmiz (1-jadval).

### 2018–2022-yillarda "Uzsalaman" AJ korxonasida mahsulot sotishdan olingan foyda o'zgarishi dinamikasi<sup>2</sup>

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birl.	2018y.	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2022y. 2018y. ga nisb.%
1	Tovar mahsuloti qiymati	Mln.so'm	139753	154677	157616	275447	393278	2,8 marta
2	Ishlab chiqarish harajatlari	Mln.so'm	118790	129155	137126	235507	318555	2,7 marta
3	Korxonaning yalpi foydasi	Mln.so'm	20963	25522	20490	39940	74723	3,6 marta
4	Rentabellik	%	17,6	19,7	14,9	17,0	23,4	132,9

Yuqoridagi jadval asosida aytish mumkinki, 2018–2022-yillarda "Uzsalaman" AJda mahsulot ishlab chiqarish hajmida yuqori sur'atlar bilan o'sish tendensiyasi kuzatiladi. O'sish sur'atlari 2019-yil 2018-yilga nisbatan 110,7%ni tashkil etgan, bu ko'rsatkich 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 142,8%ni tashkil etdi, 2018 yilga nisbatan esa ishlab chiqarish hajmini 2,8 marta ortishiga erishildi. Ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan ishlab chiqarish harajatlari ham ortgan, xususan 2018–2022-yillarda 2,7 marta ortgan. "Uzsalaman" AJda harajatlar 2,7 marta ortgani holda, korxonaning yalpi foydasi 3,6 marta ortganini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot ob'ekti hisoblangan "Maxam Chirchiq" AJ korxonasida mahsulot sotishdan olingan foyda o'zgarishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ishlab chiqarish hajmida yuqori sur'atlar bilan o'sish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin. Korxonada tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2018–2022-yillarda 3,5 marta ortdi, xususan 624613 mln.so'mdan 2 191 980 mln.so'mga yetdi. Ishlab chiqarish harajatlari 1 337 382 mln.so'mni tashkil etib, 2,7 marta ortgani holda, korxonaning yalpi foydasi 6,9 marta oshdi (2-jadval).

### 2018–2022-yillarda "Maxam Chirchiq" AJ korxonasida mahsulot sotishdan olingan foyda o'zgarishi dinamikasi<sup>3</sup>

t/r	Ko'rsatkichlar	.2018y	.2019y	.2020y	.2021y	.2022y	.2022y .2018y % ga nisb
1	Tovar mahsuloti qiymati, mln.so'm	624613	930844	1393255	397 811 1	980 191 2	marta 3,5
2	Ishlab chiqarish harajatlari, mln.so'm	500753	664130	1003968	344 231 1	382 337 1	marta 2,7
3	Korxonaning yalpi foydasi, mln.so'm	123859	266714	389287	052 580	598 854	marta 6,9
4	%, Rentabellik	24,7	40,2	38,8	47,1	63,9	marta 2,6

<sup>2</sup> Korxonada ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

<sup>3</sup> Korxonada ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Bu juda yuqori ko'rsatkich bo'lib, korxonada mahsulotiga talab yuqori ekanligini, hamda korxonada innovatsion rivojlanish strategiyasi amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, 2018–2022-yillarda “Uzsalaman” AJ korxonasida korporativ madaniyatni rivojlantirish borasida faoliyat olib borilgan. Ishchilar uchun mehnat sharoitlari yaxshilangan, jamoada ijobiy, iliq muhit shakllantirilgan. Yangi kelgan ishchilarni jamoaga kirishib ketishi, yangi kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi, shuningdek jamoa a'zolari tomonidan qabul qilingan qadriyatlarini qabul qilib, o'z faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun sharoitlar yaratish borasida ishlar amalga oshirilgan. Natijada, qo'nimsizlik sabablariga ko'ra ishdan bo'shaganlarning soni qisqargan. Mazkur omil hisobiga, xususan ishdan bo'shayotgan ishchilarning mehnat unumdorligi va sifat ko'rsatkichlarining pasayishi, hamda yangitdan ishga qabul qilingan ishchilarda adaptatsiya va yangi ish usullariga ko'nikmalar hosil qilish davrida mehnat unumdorligining past bo'lishi ko'rsatkichlarini kamayishi hisobiga ishchilarining o'rtacha mehnat unumdorligi ortgan (3-jadval).

### 3-jadval. 2018–2022-yillarda “Uzsalaman” AJ korxonasida mehnat unumdorligi o'zgarishi dinamikasi<sup>4</sup>

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birl.	2018y.	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2022y. 2018y. ga nisb.%
1	Tovar mahsuloti qiymati	Mln.so'm	139753	154677	127616	275447	393278	2,8 marta
2	Ishchilar soni	Nafar	785	852	754	953	1003	127,8
3	Ishchilarning o'rtacha yillik mehnat unumdorligi	Mln.so'm/ ishchi	178,0	181,5	169,3	289,0	392,1	220,3
3	O'rtacha ish haqi	Ming so'm	1460	1713	2150	2680	3350	229,5

2018–2022-yillarda “Uzsalaman” AJ ishchilarining soni 218 nafarga ortgan, yoki 127,8%ni tashkil etgan. Ishchilarning o'rtacha yillik mehnat unumdorligi esa 220,3%ni tashkil etgan. Mazkur holat esa, ishchilar soni o'zgarishiga nisbatan mehnat unumdorligi ko'rsatkichining o'sish sur'atlari yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Bizga ma'lumki, kompaniya yoki korxonaning iqtisodiy faoliyatini baholagan vaqtimizda, ish haqining o'sing sur'atlariga qaraganda mehnat unumdorligi o'sish sur'atlarining yuqori bo'lishi ijobiy holat hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari esa, “Uzsalaman” AJda mehnat unumdorligini oshirish borasida tadqiqotlarning olib borilishi zarurligini ko'rsatadi (4-jadval).

### 4-jadval. 2018–2022-yillarda “Maxam Chirchiq”AJ korxonasida mehnat unumdorligi o'zgarishi dinamikasi<sup>5</sup>

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birl.	.2018y	.2019y	.2020y	.2021y	.2022y	.2022y .2018y %ga nisb
1	Tovar mahsuloti qiymati	Mln.so'm	624613	930844	1393255	397 811 1	980 191 2	marta 3,5
2	Ishchilar soni	Nafar	6145	6115	6037	6086	6236	101,5
3	Ishchilarning o'rtacha yillik mehnat unumdorligi	/Mln.so'm ishchi	101,6	152,2	230,8	297,6	351,5	marta 3,5
3	O'rtacha ish haqi	Ming so'm	1985	2622	3500	3950	4500	marta 2,3

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, tadqiqot ob'ekti hisoblangan “Maxam Chirchiq”AJ korxonasida ishchilar soni o'zgarishlari 2022 yil 2018 yilga nisbatan 101,5%ni tashkil etgani holda, o'rtacha mehnat unumdorligini 3,5 marta oshirishga erishilgan.

Korxonada ishchilarning o'rtacha yillik mehnat unumdorligi ko'rsatkichining o'sish sur'atlari o'rtacha ish haqining o'sish sur'atlaridan yuqori ekanligi ham, korxonaning barqaror rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda “Uzsalaman” AJda ham iqtisodiy samaradorlikni tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy va

<sup>4</sup> Korxonada ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

<sup>5</sup> Korxonada ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



bozor muhiti omillari tadqiq etish hamda ishga solinmagan ichki imkoniyatlarni ishga solish borasida ishlar olib borilmoqda (5-jadval).

5.-jadval. 2018–2022-yillarda “Uzsalaman” AJ korxonasi kadrlar qo'nimsizligi omili hisobiga mehnat unumdorligi va foyda o'zgarishi<sup>6</sup>

t/r	Ko'rsatkichlar	2018y.	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2022y. 2018y.ga nisb.%
1.	Qo'nimsizlik sabablariga ko'ra ishdan bo'shaganlar, nafar	17	13	9	10	8	47,0
	Jumladan: Korporativ madaniyat pastligi sababli ishdan bo'shaganlar, nafar	5	5	3	2	2	40,0
	Olib borilayotgan innovatsion siyosat sababli ishdan bo'shaganlar, nafar	5	3	2	5	3	60
	AJ korporativ kodeksi qoidalariga sababli ishdan bo'shaganlar, nafar	6	5	4	3	5	83
2.	Qo'nimsizlik, %	2,2	1,5	1,2	1,0	0,8	36,4
3.	Qo'nimsizlik hisobiga ishchilarning o'rtacha yillik mehnat unumdorligi o'zgarishi, mln.so'm/ishchi	142,4	145,2	135,4	231,2	313,7	2,2 marta
3.	Ishchi kuchi qo'nimsizligi omili hisobiga ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot qiymati, mln.so'm	605,2	471,9	305,1	578	627,2	103,6
4.	Ishchi kuchi qo'nimsizligini omilini hisobga olgan holda korxonada foydasi o'zgarishi, mln.so'm	21568,2	25993,9	20795,1	40518	75350,2	3,5 marta

Demak, “Uzsalaman” AJda kadrlar qo'nimsizligi 2022-yil 2018-yilga nisbatan kamayganini, hamda 47%ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxonada ishchilari asosan, korporativ madaniyat pastligi, olib borilayotgan innovatsion siyosat talablariga javob bera olmayotgani, hamda “Uzsalaman” AJ ning korporativ kodeksi qoidalariga bo'ysunishni xohlamaganlari sababli ishdan bo'shatilganlar.

2018-yil qo'nimsizlik sabablariga ko'ra 17 nafar ishchi ishdan bo'shatilgan. Ishchilarning o'rtacha ish unumdorligi 178 mln.so'm ekanligini, hamda ishchining ishdan ketishi va yangi ishchining ishga qabul qilingach, adaptatsiya va mehnat ko'nikmalari shakllanishi davrida mehnat unumdorligining o'rtacha 15-20%ga pasayishini hisobga oladigan bo'lsak, unumdorlik pasaygani hisobiga ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot qiymati  $(178-142,4) \cdot 17 = 605,2$  mln.so'mga teng bo'lishini ko'rishimiz mumkin  $(178 \cdot 80/100 = 142,4)$ . 2022 yil mazkur ko'rsatkich 627,2 mln.so'mni tashkil etdi. Demak, korxonada korporativ madaniyatni rivojlantirish va ishchi kuchi qo'nimsizligini pasaytirish hisobiga 627,2 mln.so'mga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini oshirish ichki imkoniyati mavjud. “Uzsalaman” AJda 2018-2022 yillarda qo'nimsizlik sababiga ko'ra ishdan bo'shatilganlar soni 17 nafardan 8 nafarga kamaygan. Demak, mazkur omil hisobiga ishlab chiqarish hajmini 320,4 mln.so'mga oshirishga erishilgan  $[(178-142,4) \cdot (17-8) = 320,4]$ .

2018-2022 yillarda qo'nimsizlikni kamaytirish hisobiga ishchilarning o'rtacha yillik mehnat unumdorligi 2,2 marta oshirish ichki imkoniyati mavjud.

«Uzsalaman» AJda qo'nimsizlikni kamaytirish maqsadida mehnat unumdorligi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi korxonada foydasini oshirdi. Xususan, mazkur omilni hisobga olgan holda 2022-yil korxonaning foydasi 75350,2 mln.so'mni tashkil etadi, xususan 2018-yilga nisbatan 3,5 marta 2021 yilga nisbatan esa 1,9 marta oshirish ichki imkoniyati mavjud.

Tadqiqot obyekti hisoblangan “Maxam Chirchiq” AJ korxonasi kadrlar qo'nimsizligi omili hisobiga mehnat unumdorligi va foyda o'zgarishini tadqiq etadigan bo'lsak, qo'nimsizlik sabablariga ko'ra ishdan bo'shaganlar soni 2022 yil 34 nafar bo'lib, mazkur ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 8 nafarga qisqargan yoki 81%ni tashkil etgan (6-jadval).

<sup>6</sup> Korxonada ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

6-jadval. 2018–2022-yillarda “Maxam Chirchiq”AJ korxonasi kadrlar qo'nimsizligi omili hisobiga mehnat unumdorligi va foyda o'zgarishi<sup>7</sup>

t/r	Ko'rsatkichlar	2018y.	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2022y. 2018y.ga nisb.%
1.	Qo'nimsizlik sabablariga ko'ra ishdan bo'shaganlar, nafar	42	30	78	49	34	81,0
	Jumladan: Korporativ madaniyat pastligi sababli ishdan bo'shaganlar, nafar	16	11	28	20	14	87,5
	Olib borilayotgan innovatsion siyosat sababli ishdan bo'shaganlar, nafar	11	9	23	11	12	109,1
	AJ korporativ kodeksi qoidalari sababli ishdan bo'shaganlar, nafar	15	10	27	18	8	53,3
2.	Qo'nimsizlik, %	0,68	0,49	1,29	0,80	0,55	80,9
3.	Qo'nimsizlik hisobiga ishchilarning o'rtacha yillik mehnat unumdorligi o'zgarishi, mln.so'm/ishchi	91,1	116,2	108,3	184,5	250,7	2,2 marta
3.	Ishchi kuchi qo'nimsizligi omili hisobiga ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot qiymati, mln.so'm	441	1080	9555	5542	3461	7,8 marta
4.	Ishchi kuchi qo'nimsizligini omilini hisobga olgan holda korxonada foydasi o'zgarishi, mln.so'm	22009,2	27073,9	30350,1	40518	78811,2	3,6 marta

“Maxam Chirchiq”AJ korxonasi Respublikamiz kimyo sanoatidagi eng yirik korxonalardan hisoblanib, olti mingtadan ortiq ish o'rinlariga ega. Korxonada kadrlar qo'nimsizligini kamaytirish hamda salohiyatini oshirish borasida ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, korporativ madaniyat pastligi sababli ishdan bo'shaganlar salmog'i qo'nimsizlik omillariga ko'ra 2018-yil 38,1% bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yil 41,2%ni tashkil etdi. Mazkur holat esa, korxonada korporativ madaniyatni rivojlantirish borasida ishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Ishchi kuchi qo'nimsizligi omili hisobiga ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot qiymati 2018-yil 441 mln. sumni tashkil etgan bo'lsa  $[(101,6-91,1) * 42 = 441 \text{ mln.so'm}]$  2022-yil mazkur ko'rsatkich 3461 mln.so'mga yetdi  $[(352,5-250,7) * 34 = 3461 \text{ mln.so'm}]$ . Mazkur ko'rsatkich 2022-yil 2018-yilga nisbatan 7,8 marta ortgan bo'lishiga qaramasdan, 2021-yilga nisbatan 62,5%ni, 2020-yilga nisbatan esa 36,2%ni tashkil etdi. Bu korxonada korporativ madaniyatni shakllantirish bo'yicha tjobiy holat hisoblanadi. Shu bilan birga, “Maxam Chirchiq”AJ korxonasi korxonada ishchi kuchi qo'nimsizligi omili hisobiga tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmini 3461 mln.so'mga oshirish ichki imkoniyati mavjud.

Ishchilarning o'rtacha mehnat unumdorligining pasayishi o'z navbatida korxonada foydasining pasayishida ham o'z aksini topadi, xususan, mazkur omilni hisobga olgan holda “Maxam Chirchiq”AJ 2022-yil korxonaning foydasi 78811,2 mln.so'mni tashkil etadi, 2018-yilga nisbatan 3,6 marta 2021-yilga nisbatan esa 1,9 marta oshirish ichki imkoniyati mavjud.

“Uzsalaman” aksiyadorlik jamiyatida korporativ madaniyat munosabatlari etarli darajada shakllantirilmaganligi ta'sirida vujudga keluvchi kadrlar qo'nimsizligi 0,8 foizni, “Maxam Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatida esa ushbu ko'rsatkich 0,55 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkichlar yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegarasi  $0,1 \leq$  kadrlar qo'nimsizligi  $\leq 0,25$  ga tengligini ko'rsatdi. Mazkur chegaradan chetlanishlarning turli darajalarida qo'llaniluvchi tavsiyaviy korporativ boshqaruv dastaklari usullari quyidagilardan iborat:

“Uzsalaman” va “Maxam Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat munosabatlari etarli darajada shakllantirilmaganligi ta'sirida vujudga keluvchi kadrlar qo'nimsizligining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaradan chetlanishlarning turli darajalarida qo'llaniluvchi tavsiyaviy korporativ boshqaruv dastaklari usullari quyidagilardan iborat:

-korporativ madaniyatni rivojlantirish, xodimlarni korxonaning maqsadlari va qiymatlari bilan yanada chuqurroq bog'lash, ularning korxonaga sodiqligini oshirish.

-ishchilar bilan aloqalarni yaxshilash, ishchilar bilan muntazam muloqot qilish, ularning fikr-mulohazalarini

7 Korxonada ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



eshitish va ularning takliflarini boshqaruv jarayoniga kiritish.

-motivatsiya va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish, xodimlarni ishda qolishga va yuqori samaradorlikka rag'batlantirish uchun mukofotlash va rag'batlantirish tizimlarini yaratish yoki takomillashtirish.

-rivojlanish va o'qitish imkoniyatlarini taqdim etish, xodimlarning kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan o'qitish va o'quv dasturlarini taklif qilish.

-ish muhitini yaxshilash, ish joyida xavfsizlikni ta'minlash, xodimlarning ish sharoitlarini yaxshilash.

-korporativ javobgarlikni oshirish, xodimlarni korxonaning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatiga jalb qilish orqali ularni korxonaga yanada yaqinlashtirish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Aksiyadorlik jamiyatlarida samarali korporativ madaniyatni shakllantirishning eng muhim omillaridan biri bu sohaga tegishli "jamo"ning mavjudligidir. Agar uning atrofidagi maqsadlarni tushunishda ishonchli va birlashgan jamoa bo'lmasa, aksiyadorlik jamiyati rahbariyati va menejerlari uchun qiyin jarayon kechadi. Jamoaning roli va undagi munosabatlar menejment tizimida mavjud bo'lgan muammolarni yechishga yordam beradi. Ushbu ishlarda «jamo» tushunchasi barcha xodimlar umumiy maqsadlar va qadriyatlarga sodiq bo'lgan yaxlit ishchi guruhini tavsiflash uchun ishlatiladi. Bu rahbar atrofida birlashgan hamfikrlar jamoasidan iborat bo'lib, unda norasmiy munosabatlar rasmiy munosabatlar kabi muhim bo'lgan tuzilma sifatida ishlaydi. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri korporativ me'yorlar va qadriyatlarni quyi darajadagi xodimlarga yetkazishdir. Buning uchun bunday jamoa a'zolari o'zlarining to'g'ridan-to'g'ri funksional vazifalarini bajarishdan tashqari, doimiy ravishda o'zlarini ma'lum bir nuqta nazardan ko'rsatishlari kerak: zarur korporativ etikaning tashuvchisi sifatida, kompaniya qadriyatlariga doimo g'amxo'rlik qilishi lozim. Shu bilan birga, jamoa a'zolari tomonidan har doim ham ko'rsatilmaydigan va ilgari surilmaydigan korporativ me'yorlar va qadriyatlar aslida ularning shaxsiy e'tiqodlarini rivojlantirish borish maqsadga muvofiqdir. Bunday jamoa a'zolarida odatda oddiy xodimlardan faqat jamoa a'zolariga ma'lum bo'lgan va ular tomonidan birgalikda qo'riqlanadigan korxonalar "sirlar" mavjud bo'ladi. Shunga qaramay, jamoa haqiqiy e'tiqodlar asosida harakat qiladimi yoki shunchaki o'z rolini o'ynaydimi, yaxshi tashkil etilgan va birlashgan jamoa korxonalar korporativ madaniyatining asosiy tarkibiy qismlarini samarali shakllantirish yoki o'zgartirishga qodir.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatning shakllanishi murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, unda aniq yoki noaniq jarayonlar, tushunarli yoki tushunarsiz holatlarga duch kelinadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni shakllantirish faqat rahbarlarning ixtiyoriy qarorlari bilan emas, balki ko'p jihatli aksiyadorlar, buyurtmachilar, xodimlarning tasodifiy natijasidan ham kelib chiqadi. Natijada, aksiyadorlik jamiyatlari korporativ madaniyatni korxonaning rivojlanish jarayonida ishlab chiqilgan optimal xulq-atvor usullaridan foydalaniladi, ular pirovardida aksiyadorlik jamiyatlarining madaniy paradigmasini tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, yetakchi olimlarning ishlarini o'rganish asosida korporativ madaniyatning kompaniya mahsulotlarining sifati, savdo hajmi o'sishi, xodimlar almashinuvi va mehnat samaradorligiga ta'sirini aniq tasdiqlaydi. Korporativ madaniyatni yangilash zarurati aniqlanganidan so'ng, kompaniyaning oliy darajadagi rahbariyati kelgusi o'zgarishlarni rejalashtirish bo'yicha dasturni ishlab chiqishi lozim. Korporativ madaniyatni tahlil qilish metodlari, aksiyadorlik jamiyatining ichki muhitining holati va tashqi ishbilarmonlik muhitidagi tahdidlarni farqlash uchun ishlatilishi mumkin. Bu usullar, tashkilotning ichki iqlimini va tashqi muhitdagi potensial xavflarni aniqroq tushunishga yordam beradi. Yuqori darajadagi korporativ madaniyatning samaradorligi uning maqsadlariga qanchalik mosligi bilan baholanadi. Bu baholash, tashkilotning rivojlanish sikllarini va ularning hayotiy konsepsiyalarini chuqur o'rganish asosida amalga oshiriladi. Ijtimoiy, moddiy va iqtisodiy rag'batlantirish usullarini yanada qo'llash ishchilar va aksiyadorning xati-harakatlarini korxonalar xohlagan yo'nalishda tartibga solish imkonini beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyati korporativ madaniyatni yaxshilashning iqtisodiy aspektlariga e'tibor berish orqali, korxonalar rahbari xodimlar boshqaruv tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtiradi. Bu chora-tadbirlarning amaliyotga tatbiqi korxonaning korporativ madaniyatini sifatini oshirishga va shu bilan birga umumiy samaradorlikni yuksaltirishga olib kelishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. N.I.Akramova. Aksiyadorlik jamiyatlari kuzatuv kengashi faoliyatida mustaqil direktorlar rolini oshirish masalalari. "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy-elektron jurnali. 4/2022; 2022-08-31.
2. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni samarali boshqarishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy-elektron jurnali. 2023-yil 1-son. (08.00.00 № 11)
3. N.I.Akramova. O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini tatbiq etish va rivojlantirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. 3 /2022 may, iyun (№ 0005 9).
4. Akramova N.I. Theoretical principles of formation of corporate culture of joint stock companies. Scientific discussion (Praha, Czech Republic) ISSN 3041-4245, 50-53 p, VOL 1, No 73, (2023), Index Copernicus (12).



5. N.I.Akramova. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatning shakllanish zarurligi. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies), 2023-y. <https://orcid.org/0000-0002-6986-6748> DOI: [https://doi.org/10.55439/EIT/vol11\\_iss1/a20](https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a20). (08.00.00 № 10)
6. Spivak V.A. Korporativnaya kultura. - SPb.: Piter, 2001. - 345s.
7. A.Yablonskene. Corporate culture of the modern university. University Management: Practice and Analysis. 2006;(2):7-25.
8. Sheyn E. Korporativnaya kultura i liderstvo. – SPb: Piter, 2011. 248 s.
9. A.A.Рычкова Korporativnaya kultura sovremennoy kompanii. Genezis i tendensii razvitiya. Kazan, 2015, ISBN: 978-5-9906219-9-2, izdatelstvo: Array Litagent «Buk».305s.
10. Deal T. E. and Kennedy, A. A. (1982, 2000) Corporate Cultures: The Rites and Rituals of Corporate Life, Harmondsworth, Penguin Books, 1982; reissue Perseus Books; 2000. P.17-40
11. Smirnov E. A. Основы теории организационной культуры. М.: ЮНИТИ, 2008. 211 s.
12. Sadikova M.A., Akramova N.I., va b. The transformation of organizational culture to corporate culture in joint stock companies. International Scientific Conference “Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering” (CONMECHYDRO - 2023) doi:10.1051/e3sconf/202340103055. E3S Web of Conferences.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>